

Direktor

## Maxmudov Shuxrat Shakirovich

**Qabul vaqti:** Chorshanba, Juma (10:00 - 16:00)

**Telefon:** (0 371) 238-65-63

**E-mail:** [sh.makhmudov@tuit.uz](mailto:sh.makhmudov@tuit.uz)

**Markazning tashkil etilgan sanasi:** 2013 yil 1 oktyabr

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi "Elektron hukumat" o'quv markazi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1989-son Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining 2013 yil 30 sentyabrdagi "Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshida "Elektron hukumat" o'quv markazini tashkil qilish to'g'risida"gi 366-sonli buyrug'i asosida tashkil etilgan.

**Markazning vazifasi va funksiyasi:** "Elektron hukumat" tizimini joriy qilish va uning samarali ishlatilishida ishtirok etuvchi Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish tizimini tashkil qilish; "Elektron hukumat" tizimini joriy qilish va undan foydalanish faoliyati sohasida o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish va amalga tatbiq qilish, mazkur yo'nalishda o'qitish sifati va darajasini oshirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish; aholi va tadbirkorlik subyektlarini kompyuter savodxonligi bo'yicha o'qitish faoliyatini muvofiqlashtirish; Davlat va boshqaruv organlarida "Elektron hukumat" tizimini joriy qilish va undan foydalanish borasida amaliyotda keng uchraydigan dolzarb muammolar bo'yicha axborot-tahliliy materiallar va tavsiyalar tayyorlash; ilmiy-tashkiliy, metodik ishlar, tinglovchilarga maslahat berish, "Elektron hukumat" tizimini joriy qilish va uning samarali ishlatilishini tashkil qilish bo'yicha ishtirok etuvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari xodimlarini o'qitish faoliyatini muvofiqlashtirish; "Elektron hukumat" tizimiga oid o'quv jarayonini tashkil qilish, nazorat qilish va takomillashtirish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; yuqori texnologiyali moddiy va ilmiy bazani, shuningdek sifatning yuqori va xalqaro standartlar talablari darajasida ixtisoslashtirilgan kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish milliy maktabini shakllantirish; "Elektron hukumat" tizimiga oid fan dasturlarini, ishchi rejalari, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, zarurat hollarda ta'lim muassasalari va markazlariga amaliy-ilmiy tavsiyalar berish hamda tegishli yordam ko'rsatish.

**Markazning o'quv auditoriyasi va xonalari soni:** Markazida 1 ta o'quv auditoriyasi (42 kishilik), 1 ta kompyuter sinfi (30 kishilik) mavjud.

**Markazning viloyatlarda o'qitish imkoniyati:** Markaz tomonidan Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahrida o'qitish imkoniyati mavjud.

### **Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:**

"Elektron hukumat" tizimini joriy qilish va uning samarali ishlatilishida ishtirok etuvchi Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish tizimini tashkil qilish;

"Elektron hukumat" tizimini joriy qilish va undan foydalanish faoliyati sohasida o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish va amalga tatbiq qilish, mazkur yo'nalishda o'qitish sifati va darajasini oshirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish;

aholi va tadbirkorlik subyektlarini kompyuter savodxonligi bo'yicha o'qitish faoliyatini muvofiqlashtirish;

Davlat va boshqaruv organlarida "Elektron hukumat" tizimini joriy qilish va undan foydalanish borasida amaliyotda keng uchraydigan dolzarb muammolar bo'yicha axborot-tahliliy materiallar va tavsiyalar

tayyorlash;

ilmiy-tashkiliy, metodik ishlar, tinglovchilarga maslahat berish, "Elektron hukumat" tizimini joriy qilish va uning samarali ishlatilishini tashkil qilish bo'yicha ishtirok etuvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari xodimlarini o'qitish faoliyatini muvofiqlashtirish;

"Elektron hukumat" tizimiga oid o'quv jarayonini tashkil qilish, nazorat qilish va takomillashtirish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

yuqori texnologiyali moddiy va ilmiy bazani, shuningdek sifatning yuqori va xalqaro standartlar talablari darajasida ixtisoslashtirilgan kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish milliy maktabini shakllantirish;

"Elektron hukumat" tizimiga oid fan dasturlarini, ishchi rejalarini, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, zarurat hollarda ta'lim muassasalari va markazlariga amaliy-ilmiy tavsiyalar berish hamda tegishli yordam ko'rsatish.

### Taqdim etilayotgan kurslar

№	Kurs nomi	Muddati	Soati
<b><i>Boshlang'ich kurslar</i></b>			
1	Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	3 kun	12
2	Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	6 kun	24
3	Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	9 kun	36
<b><i>Mukammal kurslar</i></b>			
1	«Elektron hukumat — imkoniyatlari va istiqbollari»	2-3 kun	14
2	«Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali — elektron hukumat tizimining asosiy segmenti sifatida»	2-3 kun	10
3	"Yagona nuqta orqali ochiq davlat ma'lumotlaridan foydalanish"	2-3 kun	10
4	"Axborot texnologiyalari sohasidagi loyihalarni boshqarish"	9-10 kun	38
5	"Axborot xavfsizligi"	5-6 kun	22
6	"Axborot xavfsizligi" (chuqurlashtirilgan)	9-12 kun	48
7	"Elektron tijorat"	2-3 kun	12
8	"Elektron tijorat" (chuqurlashtirilgan)	4-5 kun	20
9	"Korxonalar resurslarini rejalashtirish - ERP"	4-5 kun	20
10	"Biznes jarayonlari reinjiningi - BPR"	3-4 kun	16
11	"Kadrlar" TAT"	5-6 kun	24

Markazda soatbay asosida jami 20 nafar o'qituvchilar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 2013 yilda 4 nafar, 2014 yilda 8 nafar o'qituvchilarimiz Koreyaning Seul shahridagi axborot texnologiyalari o'quv markazida 4 oylik malaka oshirish kurslarida tahsil olib qaytishgan.